

# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-dekabr

## RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi 30,3 trln. so'm, o'sish sur'ati 102,2 % qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati 102,4 % ni tashkil qildi. Shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 103,3 % ni va chorvachilik mahsulotlari 101,2 % ni tashkil qildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi 30298,6 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,2 %ni, shu jumladan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqonchilik va chorvachilik va bu sohada xizmat ko'rsatish – 29391,8 mlrd. so'mni (102,0 %), ovchilik – 0,3 mlrd. so'mni (101,4 %), o'rmon xo'jaligi – 832,4 mlrd. so'mni (101,9 %), va baliq xo'jaligi – 74,2 mlrd. so'mni (167,2 %) tashkil qildi


## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



■ mahsulotlar (xizmatlar) hajmi mlrd.so'm

● o'sish sur'ati (%)da

## **Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (foizda)**




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmida Urgut tumanining ulushi 11,8 % ni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Kattaqo'rg'on va Ishtixon tumanlari mos ravishda 10,7 % va 9,0 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rirlarni egalladi. Eng kam ulush Kattaqo'rg'on shahri (0,4 %), Samarqand shahri (0,9 %) va Nurobod (2,4 %) tumanida qayd etildi.

### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**


2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,4 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 103,3 % ni, chorvachilik mahsulotlari 101,2 % ni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foizda)



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,7 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 33,5 % – fermer xo'jaliklariga, 2,8 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida (foizda)





Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'satkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

## Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 15674,3 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,3 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidan dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,6 %ni tashkil qildi.




### 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da
Don ekinlari	697017	110,2	546482	112,9	146111	101,1	4424	107,3
Kartoshka	599437	103,4	118728	117,8	479525	100,4	1184	103,1
Sabzavotlar	1569164	109,0	721673	118,3	841193	102,2	6298	102,3
Poliz	124000	103,4	32291	109,0	91542	101,8	167	38,7
Meva va rezavorlar	334848	100,3	126683	88,6	181144	101,8	27021	2,8 m.
Uzum	564278	93,8	299020	86,9	250635	103,3	14623	95,5

**Hosilni yig'ib olish.** 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 697,0 ming tonna (110,2 %) don ekinlari ishlab chiqarildi, 599,4 ming tonna (103,4 %) kartoshka kavlab olindi, 1569,2 ming tonna (109,0 %) sabzavotlar, 124,0 ming tonna (103,4 %) poliz, 334,8 ming tonna (100,3 %) mevalar va rezavorlar, 564,3 ming tonna (93,8 %) uzum yig'ib olindi.


## Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi




Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda. Hisobot davrida kartoshka umumiyligi hajmining 80,0 %, sabzavotlarning 53,6 %, polizning 73,8 %, meva va rezavorlarning 54,1 %, ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlari va uzumning asosiy qismi esa fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ushbu mahsulotlar hajmining 78,4 % don 53,0 % uzum ekinlari hissasiga to'g'ri keladi.

## 2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


**Don ekinlari (ming t)**




**Kartoshka (ming t)**




**Sabzavotlar (ming t)**




**Poliz (ming t)**



### Mevalar jami (ming t)



### Uzum (ming t)



## Chorvachilik




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 13556,4 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,2 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 46,4 %ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 297,2 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-dekabrga nisbatan (0,9 %ga ko'p), 1282,9 ming tonna sut (3,3 %ga ko'p), 1377,9 mln.dona tuxum (3,4 %ga kam) ishlab chiqarildi.

## 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirk vaznda, ming t	297,2	100,9	44,0	104,2	243,2	100,2	10,0	103,3
Sut, ming t	1282,9	103,3	102,3	119,5	1179,8	102,1	0,8	102,2
Tuxum, mln. dona.	1377,9	96,6	369,3	83,8	629,6	102,0	379,0	102,9
Jun, ming t	3,8	99,6	0,2	106,6	3,5	99,0	0,1	104,8
Qorako'l, ming dona.	57,1	96,6	2,6	109,6	40,3	90,6	14,1	116,1
Pilla, ming t	2,9	131,3	2,9	131,3	-	-	-	-


### Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi (foizda)




Chorvachilik mahsulotlarining ishlab chiqarishdagi ko'satkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 81,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sut 91,9 %, tuxum 45,7 %, jun 91,5 %, va qorako'l terining 70,6 % ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

### Hududlar kesimida asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



**Go'sht (ming t)**




**Sut (ming t)**



**Tuxum (mln. dona)**



**Pilla (tonna)**



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2020 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1579,5 ming boshga, shu jumladan sigirlar 695,1 ming boshga, qo'y va echkilar 2446,4 ming boshga, parrandalar 14564,2 ming boshga yetdi.


2019 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 23,9 ming boshga (1,5 %ga), shu jumladan sigirlar 9,7 ming boshga (1,4 %ga), parrandalar 1809,1 ming boshga (14,2 %ga) qo'y va echkilar esa 49,4 ming boshga (2,1 %ga), ko'paydi.

### **2020 yilning 1 yanvar holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	<i>Barcha toifadagi xo'jaliklar</i>		<i>shu jumladan:</i>						
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>		
	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	
<b>Yirik shoxli</b>									
qoramollar	1579,5	101,5	76,7	100,6	1493,9	101,6	8,9	100,6	
<i>shu jumladan sigirlar</i>	695,1	101,4	30,2	100,8	663,8	101,5	1,1	100,0	
Qo'y va echkilar	2446,4	102,1	145,0	106,9	2162,4	101,5	106,2	107,3	
Otlar	26,7	102,8	3,3	108,7	23,0	101,9	0,3	109,2	
Parrandalar	14564,2	114,2	4191,9	111,5	6205,1	111,1	4167,2	122,1	

2020 yining 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,8 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,9 % fermer xo'jaliklariga, 88,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,7 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 28,8 % fermer xo'jaliklariga, 42,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 28,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi

## Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi (foizda)




### 2020 yilning 1 yanvar holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni


Yirik shoxli qoramollar ( <i>ming bosh</i> )	
Pastdarg'om	184,9
Urgut	184,2
Kattaqo'rg'on	146,8
Ishtixon	131,7
Jomboy	108,7
Payariq	108,1
Bulung'ur	106,7
Qo'shrabot	105,5
Tayloq	99,5
Narpay	96,8
Paxtachi	86,6
Oqdaryo	78,3
Nurobod	64,9
Samarqand	49,0
Kattaqo'rg'on sh.	21,6
Samarqand sh.	5,9




shundan, sigirlar ( <i>ming bosh</i> )	
Urgut	81,9
Pastdarg'om	78,1
Kattaqo'rg'on	65,1
Ishtixon	59,1
Payariq	57,8
Bulung'ur	53,9
Tayloq	47,6
Jomboy	45,6
Narpay	43,9
Qo'shrabot	39,5
Paxtachi	33,8
Oqdaryo	29,9
Nurobod	29,5
Samarqand	18,3
Kattaqo'rg'on sh.	7,4
Samarqand sh.	3,5



### Qo'y va echkilar (ming bosh)



### Parrandalar (ming bosh)



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

- 71-230-85-30
- 71-230-85-31